

MILLIY TARAQQIYOTNING YANGI SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARINING HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

Djalilov Zoir Saydiraxmon o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Tel.: 97 445 02 92

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20133015>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi, tashkiliy tizimi va faoliyat yo'nalishlarining yangilanishi tahlil qilinadi. Mustaqillik arafasida sovet davridan meros bo'lib qolgan markazlashgan profsoyuz tizimini milliy davlatchilik, bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati talablariga moslashtirish zarurati yuzaga kelgani ochib beriladi. Shuningdek, 1990–1991-yillarda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining shakllanishi, 1992-yilgi qonunchilik asoslari, xalqaro va mintaqaviy aloqalarning qayta ko'rib chiqilishi, ijtimoiy sheriklik tizimi hamda tashkiliy optimallashtirish jarayonlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada kasaba uyushmalarining yangi tarixiy sharoitda xodimlar huquqlari, mehnat manfaatlari va ijtimoiy himoyani ta'minlovchi institut sifatida shakllanishiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: kasaba uyushmalari, mustaqillik, huquqiy maqom, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, ijtimoiy sheriklik, jamoa shartnomasi, mehnat huquqlari, fuqarolik jamiyati, tashkiliy islohotlar.

ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СОЮЗОВ В НОВЫХ УСЛОВИЯХ НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируются правовой статус, организационная система и обновление направлений деятельности профессиональных союзов Узбекистана после обретения независимости. Раскрывается необходимость адаптации централизованной профсоюзной системы, унаследованной от советского периода, к требованиям национальной государственности, рыночной экономики и гражданского общества. Особое внимание уделяется формированию Федерации профсоюзов Узбекистана в 1990–1991 годах, законодательным основам 1992 года, пересмотру международных и региональных связей, становлению социального партнёрства и процессам организационной оптимизации. В статье рассматривается превращение профсоюзов в институт защиты трудовых прав, социальных интересов и гарантий работников в новых исторических условиях.

Ключевые слова: профессиональные союзы, независимость, правовой статус, Федерация профсоюзов Узбекистана, социальное партнёрство, коллективный договор, трудовые права, гражданское общество, организационные реформы.

LEGAL AND ORGANIZATIONAL FOUNDATIONS OF TRADE UNIONS IN THE NEW CONDITIONS OF NATIONAL DEVELOPMENT

Annotation. The article analyzes the legal status, organizational system and renewal of trade union activities in Uzbekistan after independence. It reveals the need to adapt the centralized trade union system inherited from the Soviet period to the requirements of national statehood, market economy and civil society. Special attention is paid to the formation of the

Federation of Trade Unions of Uzbekistan in 1990–1991, the legislative foundations of 1992, the reconsideration of international and regional relations, the development of social partnership and organizational optimization. The article examines the formation of trade unions as an institution that protects labor rights, social interests and guarantees of employees in new historical conditions.

Keywords: trade unions, independence, legal status, Federation of Trade Unions of Uzbekistan, social partnership, collective agreement, labor rights, civil society, organizational reforms.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va huquqiy asoslari yangicha mazmun kasb etdi. Bu jarayon kasaba uyushmalari faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Sovet davrida ular umumittifoq markazlashgan tizimning tarkibiy bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritgan, ko‘p hollarda davlat-partiya organlari belgilagan vazifalarni amalga oshiruvchi tuzilma sifatida namoyon bo‘lgan edi. Mustaqillik sharoitida esa kasaba uyushmalarini xodimlarning mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini ifodalovchi milliy institut sifatida qayta shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Mazkur jarayonning dolzarbligi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida yanada kuchaydi. Mulkchilik shakllarining xilma-xillashuvi, xususiy sektorning shakllanishi, korxonalar faoliyatida qayta tashkil etish jarayonlari, bandlik masalalarining murakkablashuvi mehnat munosabatlarida yangi huquqiy mexanizmlarni talab qildi. Bunday sharoitda kasaba uyushmalari ishchi va xizmatchilar manfaatlarini himoya qilish, jamoa shartnomalari hamda bitimlar tizimini rivojlantirish, mehnat muhofazasi va ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini mustahkamlashda faol subyektga aylanishi lozim edi.

Asosiy qism. Mustaqillik arafasida kasaba uyushmalarining yangi maqomini belgilash ehtiyoji, avvalo, sovet davridan qolgan tashkiliy va funksional cheklovlar bilan bog‘liq edi. Sovet yillarida O‘zbekistondagi kasaba uyushmalari keng ommaviy tashkilot ko‘rinishida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, ularning mustaqil tashabbus ko‘rsatish, xodimlar manfaatlarini qat’iy himoya qilish va ish beruvchi hamda davlat organlari bilan teng huquqli muloqot olib borish imkoniyatlari cheklangan edi. Shu sabab mustaqillik davrida kasaba uyushmalarining yangi huquqiy maqomini belgilash tarixiy zaruratga aylandi [3, 161–163-b.].

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov kasaba uyushmalarining o‘sha davrdagi holatini tanqidiy baholab, ularning mehnatkashlarning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishdagi sustkashligiga e’tibor qaratgan. U keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga har yili 20 mingdan ortiq xat va og‘zaki shikoyat kelib tushgan, ularning muhim qismi mehnat jamoalaridagi nizolar, uy-joy hamda moddiy ne’matlarni taqsimlashda ijtimoiy adolat buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan [1, 215–216-b.]. Bu holat kasaba uyushmalarining xodimlar manfaatlarini himoya qilishda qat’iy va tashabbuskor bo‘lishi zarurligini ko‘rsatgan.

Huquqiy asoslarni shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va maxsus qonunchilik muhim o‘rin tutdi. 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun mustaqillikning dastlabki bosqichida kasaba uyushmalarining huquqiy maqomini belgilab bergan asosiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Unda kasaba uyushmalarining tuzilishi, faoliyat yuritish prinsiplari, xodimlarning mehnatga oid va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilishdagi vakolatlari mustahkamlandi [4].

Mazkur qonun kasaba uyushmalarining davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik idoralari, siyosiy va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqil faoliyat yuritishi tamoyilini belgiladi. Unda kasaba uyushmalari huquqlarini cheklash yoki ularning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish taqiqlanishi alohida qayd etilgan [4]. Bu norma sovet davridagi qaramlik holatidan chiqish va kasaba uyushmalarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Kasaba uyushmalari faoliyatining keyingi huquqiy rivojida 2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun ham muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur hujjat fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini amalga oshirish, kasaba uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratildi [5]. Shu jihatdan u mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan huquqiy asoslarning yangi sharoitdagi mantiqiy davomi sifatida baholanadi. O‘zbekiston kasaba uyushmalarining tashkiliy tizimini yaratishda 1990–1991-yillar alohida bosqich bo‘ldi. 1990-yil 12-oktabrda “O‘zbekiston kasaba uyushmalari” XIV syezdining birinchi bosqichida respublikada faoliyat yuritayotgan 25 ta tarmoq kasaba uyushmasi tomonidan O‘zbekiston SSR kasaba uyushmalari Federatsiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi deklaratsiya va uning Nizomi qabul qilindi [2, 5–8-b.]. Bu qaror kasaba uyushmalarining respublika miqyosida mustaqil tashkiliy markazga ega bo‘lishi yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

1991-yil 26-martda XIV syezdning ikkinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi va unda “O‘zbekiston SSR kasaba uyushmalari Federatsiyasi” nomi “O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi” deb qayta nomlandi. Shu bosqichda Federatsiya Ustavi tasdiqlandi va u Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazildi [6, 65-varaq]. Bu jarayon kasaba uyushmalarining milliy huquqiy maydonda legitim faoliyat yuritishi uchun tashkiliy poydevor yaratdi. Federatsiyaning tashkil topishi tarmoq kasaba uyushmalari, hududiy kengashlar va boshlang‘ich tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini berdi. Mustaqillikning ilk yillarida bu tuzilma iqtisodiy islohotlar sharoitida ishchi va xizmatchilar huquqlarini himoya qilish, jamoa shartnomalari va bitimlar tizimini rivojlantirish, davlat organlari bilan ijtimoiy muloqot olib borish uchun muhim institutsional asos vazifasini bajardi [2, 6–10-b.].

Kasaba uyushmalari faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri xalqaro va mintaqaviy aloqalarni qayta ko‘rib chiqish bo‘ldi. Sobiq ittifoq parchalanganidan keyin umumittifoq profsoyuz tizimi izdan chiqdi. Shu sharoitda O‘zbekiston kasaba uyushmalari hamdo‘stlik mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya kasaba uyushmalari bilan aloqalarni milliy manfaatlar asosida yo‘lga qo‘yishga intildi [7, 44–46-b.; 8]. 1992-yilda sobiq Butunittifoq kasaba uyushmalari markaziy kengashi o‘rnida Kasaba uyushmalari umumiy konfederatsiyasi tuzildi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari dastlab mazkur tuzilma doirasidagi aloqalarda qatnashdi. 1997-yil 4-oktabrda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining IV majlisida ushbu konfederatsiya faoliyati ko‘rib chiqilib, uning ayrim yondashuvlari O‘zbekiston manfaatlariga mos kelmasligi sababli tarkibdan chiqish haqida qaror qabul qilindi [9, 12-varaq]. Bu qaror milliy kasaba uyushmalari tizimining tashqi aloqalarni mustaqil belgilashga intilganini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari faoliyatining yangi mazmun kasb etishida ijtimoiy sheriklik tizimi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlat, ish beruvchi va xodimlar manfaatlarini muvofiqlashtirishga asoslangan mexanizmlar bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mehnat munosabatlarini tartibga solishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari va bitimlar tuzish orqali ish haqi, mehnat sharoiti, dam olish,

sog'lomlashtirish, moddiy yordam va boshqa ijtimoiy kafolatlar masalasini ilgari surdi [3, 161–163-b.].

Ijtimoiy sheriklik g'oyasi 1995-yil 16-martda I.A. Karimovning O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi va respublika tarmoq kasaba uyushmalari birlashmalari rahbarlari bilan uchrashuvda ham alohida qayd etildi. Unda kasaba uyushmalarining asosiy vazifasi mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ekani, barcha bosqichlarda jamoa shartnomalari va bitimlar tuzish orqali bu masalalar ish beruvchilar oldiga qat'iy qo'yilishi lozimligi ta'kidlangan [10, 134-varaq]. Kasaba uyushmalari tizimini takomillashtirish keyingi bosqichlarda ham davom etdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ortiqcha bo'g'inlarni qisqartirish, boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini kuchaytirish, boshqaruvni ixchamlashtirish va resurslarni xodimlar ijtimoiy himoyasiga yo'naltirish vazifalari kun tartibiga chiqdi. 2011-yildan boshlab o'z oldidagi vazifalarni bajarish imkoniyati pasaygan ayrim kasaba uyushmalari birlashtirildi, 2012-yilda kollejar boshlang'ich tashkilotlaridan uzilib qolgan birlashgan qo'mitalar tugatildi, 2013-yilda hududiy birlashmalar funksiyasini takrorlaydigan hududiy kengashlar faoliyati to'xtatildi [11, 45–47-b.].

Tashkiliy islohotlar natijasida ko'plab tarmoq kasaba uyushmalarida ixcham ikki bo'g'inli tizim shakllandi. Bu qarorlar qabul qilishni tezlashtirish, boshlang'ich tashkilotlar bilan yuqori organlar o'rtasidagi masofani qisqartirish va hujjat aylanishini kamaytirishga xizmat qildi. Manbalarda yuqori tashkilotlardan boshlang'ich tashkilotlarga yuborilayotgan qaror va hujjatlar hajmi 50 foizdan ortiq qisqargani qayd etiladi [12, 67-varaq]. Tizimni ixchamlashtirish moliyaviy natija ham berdi. Tashkiliy tuzilmaning takomillashtirilishi va markazlashtirilgan moliyalashtirish tamoyilining joriy etilishi natijasida 19,5 milliard so'm mablag' iqtisod qilinishi, ishchi va xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgani ko'rsatilgan [11, 45–47-b.; 12, 67-varaq]. Bu holat tashkiliy islohotlarning asosiy maqsadi boshqaruv apparatini soddalashtirish bilan birga xodimlar manfaatini himoya qilish imkoniyatini kengaytirish bo'lganini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalarining huquqiy va tashkiliy asoslari bir necha yo'nalishda shakllandi. Birinchi yo'nalish ularning sovet davridagi markazlashgan va qaram modeldan milliy huquqiy maydonda faoliyat yurituvchi institutga aylanishi bilan bog'liq bo'ldi. Bu jarayon Konstitutsiya, 1992-yilgi maxsus qonun va keyingi normativ-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlandi [4; 5].

Ikkinchi yo'nalish O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining tashkil topishi bilan ifodalanadi. 1990–1991-yillardagi syezdlar respublikadagi tarmoq kasaba uyushmalarini yagona milliy markaz atrofida birlashtirdi. Federatsiya Ustavining tasdiqlanishi va Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilishi kasaba uyushmalari tizimining tashkiliy-huquqiy legitimligini ta'minladi [6, 65-varaq].

Uchinchi yo'nalish xalqaro va mintaqaviy aloqalarni milliy manfaatlar asosida qayta belgilashda namoyon bo'ldi. 1997-yilda umumiy konfederatsiya tarkibidan chiqish to'g'risidagi qaror O'zbekiston kasaba uyushmalarining tashqi aloqalarda mustaqil pozitsiya tanlashga intilganini ko'rsatadi [9, 12-varaq].

To'rtinchi yo'nalish ijtimoiy sheriklik tizimining shakllanishidir. Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari va bitimlar orqali mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan muzokara olib borish, mehnat munosabatlarida manfaatlar muvozanatini ta'minlash vazifalarini bajarishga kirishdi [3, 161–163-b.].

Beshinchi yo‘nalish tashkiliy optimallashtirish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ldi. 2011–2013-yillarda ortiqcha va takrorlovchi bo‘g‘inlarni qisqartirish, ikki bo‘g‘inli tuzilmani joriy etish, hujjat aylanishini kamaytirish hamda mablag‘larni bevosita ijtimoiy himoyaga yo‘naltirish choralari kasaba uyushmalari tizimining institutsional yetilish bosqichini ko‘rsatadi [11, 45–47-b.; 12, 67-varaq].

Xulosa. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston kasaba uyushmalarining huquqiy va tashkiliy asoslari mamlakatda yangi davlatchilik, bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishi bilan bog‘liq holda rivojlandi. Sovet davridan meros bo‘lib qolgan markazlashgan profsoyuz modeli yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit talablariga javob bermay qoldi. Shu sabab kasaba uyushmalarining huquqiy maqomini qayta belgilash, ularni xodimlar manfaatlarini himoya qiluvchi milliy institut sifatida shakllantirish zarurati yuzaga keldi. 1992-yilgi “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun mustaqillikning dastlabki bosqichida kasaba uyushmalarining huquqiy poydevorini yaratdi. 2019-yilda qabul qilingan “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun esa ushbu institut faoliyatini yangi bosqichda tartibga solishga xizmat qildi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 1990–1991-yillarda shakllanishi tarmoq va hududiy tashkilotlarni yagona milliy markaz atrofida birlashtirdi.

Kasaba uyushmalarining xalqaro aloqalarni qayta ko‘rib chiqishi, ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini joriy etishi va jamoa shartnomalari tizimini rivojlantirishi ularning yangi sharoitdagi amaliy funksiyalarini belgiladi. Keyingi tashkiliy islohotlar esa boshqaruv tizimini ixchamlashtirish, boshlang‘ich tashkilotlar rolini kuchaytirish va ijtimoiy himoya imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. Shu asosda aytish mumkinki, O‘zbekiston kasaba uyushmalari mustaqillik yillarida huquqiy maqomi belgilangan, milliy tashkiliy markazga ega bo‘lgan, ijtimoiy sheriklik va mehnat huquqlari himoyasida ishtirok etuvchi institut sifatida shakllandi. Bu jarayon mamlakatda mehnat munosabatlarini tartibga solish, xodimlar manfaatlarini ifoda etish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish tarixida muhim bosqich bo‘ldi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
2. Axmadjonov B.O. O‘zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyati tarixi (1991–2021-yillar): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2024. – 54 b.
3. Моховикова М.Н. Деятельность профсоюзов Узбекистана и органов самоуправления граждан в сфере занятости и охраны трудовых прав // Власть. – 2013. – № 3. – С. 161–163.
4. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-18156>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-588-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4631281>
6. O‘z MA, M.106-fond, 1-ro‘yxat, 124-yig‘majild, 65-varaq.

7. Гентшке В.Л., Фищук Н.В. Связи профсоюзов Узбекистана и России // Профсоюзы России сегодня. Состояние и проблемы: материалы науч.-практ. конф. (15 июня 1994 г.). – Санкт-Петербург, 1994. – С. 44–46.
8. Isayev M., Pulatov B. Kasaba uyushmalar hamkorligi: O‘zbekiston–Turkiya mablag‘laridan omilkorlik bilan foydalanish // Ishonch. – 1999. – 17-mart.
9. O‘z MA, M.106-fond, 1-ro‘yxat, 129-yig‘majild, 12-varaq.
10. O‘z MA, M.106-fond, 1-ro‘yxat, 80-yig‘majild, 134-varaq.
11. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining navbatdan tashqari VI qurultoyi materiallari (2014-yil 27-fevral). – Toshkent, 2014. – B. 45–47.
12. O‘z MA, M.106-fond, 1-ro‘yxat, 491-yig‘majild, 67-varaq.
13. Boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 124 b.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>